

MATYOQUB QO'SHJONOVNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI**Odinayeva Farangiz Zafar qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi.

Yuldosheva Saodat Azizovna

Ilmiy rahbar: dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19587806>

Annotatsiya. Mazkur maqolada atoqli o'zbek adabiyotshunosi va munaqqidi, akademik Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-nazariy merosi tadqiq etilgan. Muallif olimning badiiy asarni tahlil qilishdagi o'ziga xos metodlari, realizm va uslub masalalari hamda xarakter yaratish mahorati haqidagi qarashlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda olimning milliy xarakter va badiiy psixologizm masalalariga oid ilmiy konsepsiyalari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, Oybek va Abdulla Qahhorlarning o'zbek romanchiligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tanqidchilik etikasi va estetik tamoyillari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari bugungi kun adabiyotshunosligi uchun M. Qo'shjonov ilmiy maktabining dolzarbligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Matyoqub Qo'shjonov, adabiy tanqid, milliy xarakter, badiiy tahlil, realizm, uslub, estetik tamoyil, adabiyotshunoslik, ilmiy meros, obraz.

LITERARY-CRITICAL VIEWS OF MATYOQUB QO'SHJONOV

Abstract. This article examines the literary-theoretical heritage of the prominent Uzbek literary scholar and critic, academician Matyoqub Qo'shjonov. The author systematically analyzes the scholar's unique methods of artistic text analysis, as well as his views on realism, style, and the mastery of character creation. The research comparatively studies his scientific concepts related to national character and artistic psychologism. It also reveals the contributions of Abdulla Qodiriy, Oybek, and Abdulla Qahhor to the development of Uzbek novelism, along with the ethics of criticism and aesthetic principles. The results of the study demonstrate the relevance of M. Qo'shjonov's scientific school for contemporary literary studies.

Keywords: Matyoqub Qo'shjonov, literary criticism, national character, artistic analysis, realism, style, aesthetic principle, literary studies, scientific heritage, image.

ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ**МАТЁКУБА КОШЖОНОВА**

Аннотация. В данной статье исследуется литературно-теоретическое наследие выдающегося узбекского литературоведа и критика, академика Матёкуба Кошжонова.

Автор системно анализирует своеобразные методы ученого в анализе художественного произведения, а также его взгляды на реализм, стиль и мастерство создания характера. В исследовании в сравнительном аспекте изучаются научные концепции ученого, связанные с национальным характером и художественным психологизмом. Также раскрывается вклад Абдуллы Кадыри, Ойбека и Абдуллы Каххара в развитие узбекского романа, а также вопросы этики критики и эстетических принципов. Результаты исследования демонстрируют актуальность научной школы М. Кошжонова для современного литературоведения.

Ключевые слова: Матёкуб Кошжонов, литературная критика, национальный характер, художественный анализ, реализм, стиль, эстетический принцип, литературоведение, научное наследие, образ.

Yetuk tanqidchi va adabiyotshunos, O‘zR FA haqiqiy a‘zosi, Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor Matyoqub Qo‘shjonov o‘zbek tanqidchiligida fikrlash tarzi va ifoda uslubi, jangovar haqgo‘yligi, sermahsul va salmoqdor tadqiqotlari bilan alohida ajralib turadi. U jahon va rus tanqidchiligi estetik an‘analarini ijodiy o‘zlashtirib, yangi sharoitlarda o‘zbek adabiyoti muammolari tadqiqi va tahlilida davom ettirgan munaqqiddir.

A.Qodiriy san‘ati va mahoratini o‘rganish M. Qo‘shjonov ijodining markaziy muammolaridan birini tashkil etdi. Uning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati” nomli asari adib ijodi nozik did va nafosat bilan, bor go‘zalliklari va qudrati bilan tahlil etilgan o‘zbek adabiyotshunosligidagi dastlabki fundamental tadqiqot sifatida XX asr o‘zbek tanqidida mustahkam o‘rin egalladi. Olim A.Qodiriyning xarakter yaratish mahorati, xarakterning shakllanish omillarini aniqlash, san‘atkorlikdagi o‘ziga xos nuqtalarini topish, xususan, “sir saqlash” san‘atini birinchilardan bo‘lib M. Qo‘shjonov ko‘ra oldi. Abdulla Qodiriy qahramonlarini tahlil qilganda, ularning ichki kechinmalarini milliy qadriyatlar va o‘sha davrning ma‘naviy qiyofasi bilan uzviy bog‘liqlikda yoritib bergan. Voqealarni sirli bayon etish yozuvchiga qahramon ruhiy olamini ochishda asosiy omil bo‘lib xizmat qildi, degan xulosaga keladi munaqqid. A.Qodiriy badiiy mahoratini qirralarini olim (sir saqlash, perepitiya, ichki va tashqi kolliziyalar birligi, antiteza) asardagi nafaqat asosiy obrazlar – Otabek va Kumush xakteri orqali ochish, balki bu ikki qabramonga kelib tutashuvchi va ularga aloqador bo‘lgan, barcha katta-kichik obrazlarni ham tahlil etish orqali ko‘rsatishga intiladi.[1.1] Olim badiiy asarni tahlil qilganda qahramonning nima deganiga emas, nima uchun bunday deganiga va uning ichki iztiroblariga e‘tibor qaratgan. M. Qo‘shjonov “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlarini tahlil qilarkan, A. Qodiriy personajlarining xakteri bevosita dialoglarda emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi va kutilmagan vaziyatlardagi ichki portlash orqali namoyon bo‘lishini qayd etadi.

M. Qo‘shjonov Oybek ijodini, uning mahorat sirlarini o‘rganish borasida ham ko‘p mehnat qildi. I. Sultonov o‘tgan asr 60-yillari arafasidayoq tanqidchilarni M.Qo‘shjonovdan o‘rnak olishga da‘vat etishi bejiz emas. “Oybek romanlarida xakterlarni tasvirlash mahorati” mavzusida rus tilida yozilgan nomzodiik dissertatsiyasining asosiy natijalari kitob holida 1959-yilda bosilib chiqdi. Kitobning fazilati yozuvchilik san‘atining asosiy va muhim tomoni sanaluvchi xakter yaratish mahoratining tekshirilishida ko‘rindi. Asar Z. Kedrina, G. Lomidze kabi taniqli olimlar tomonidan o‘zbek adabiyotshunosligining jiddiy yutug‘i deb yuksak baholandi.[1.2] Matyoqub Qo‘shjonov tanqidchilikda xolislik va haqqoniylikni birinchi o‘ringa qo‘ygan. U asarning yutuqlarini bo‘rttirib, kamchiliklarini esa muallifga ziyon yetkazmagan holda ilmiy asosda ko‘rsatib bera olgan. M. Qo‘shjonov tahlillarida psixologizm yetakchi o‘rin tutadi. Olim badiiy asarni shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, balki jonli organizm deb hisoblagan. U qahramonlarning har bir xatti-harakati ortida yashiringan ijtimoiy va ruhiy sabablarni qidiradi.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligining tarkibiy qismi – qahhorshunoslikni ham M.Qo‘shjonov tadqiqotlarisiz tasavvur etish qiyin. U A. Qahhorning deyarli barcha asarlarini, ulardagi estetik tamoyillarni keng planda, yangilanib borayotgan fikrlar asosida yangicha uslubda tahlil qildi. Bu hol A. Qahhorning ijodiy individualligini, ya‘ni A. Qodiriy, Oybek va boshqa yirik nosirlar ijodidan farq qiladigan qirralarini to‘laroq gavdalantirish imkonini berdi.

Olimning “Adashganlar fojiasi” deb atalgan tadqiqoti A. Qahhor ijodini, mahorat sirlarini o‘rganish yo‘lidagi shunday izlanishlar natijasi bo‘ldi.

M. Qo'shjonovning "Mahorat sirlari" (1968) nomli asarida A. Qahhorning epik asarlari yuksak did bilan tahlil qilindi. Adib haqida navbatdagi "Hayot va nafosat" (1970) kitobida yozuvchining hikoyanavislik san'ati va dramatik asarlari o'rganildi. "Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor" asarida esa yozuvchining hajviy mahorati tadqiq etildi. A. Qahhor muammolarga qanday yondashdi, voqelikka munosabati qanday, boshqa ijodkorlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi, talanti yo'nalishini belgilaydigan omillar nimalardan iborat? M. Qo'shjonov yuqoridagi kitoblarida ana shu masalalarga javob qidiradi va eng asosiysi, bu murakkab muammolarni asosli dalillar bilan chiroyli uslubda ochib beradi. Butun diqqat-e'tibor yetakchi bir nuqtaga – yozuvchining ijodiy prinsiplari nimalardan iborat ekanligini tahlil qilib berish va shu asosda uning o'ziga xosligini ko'rsatishga qaratiladi. A. Qahhor haqidagi ishning A. Qodiriy, Oybek ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlardan farqlanuvchi ayrim xususiyatlari shundaki, tanqidchi endi asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini belgilovchi qahramon xarakterini o'rganishdan tashqari bir qarashda oddiy kitobxon ko'ziga tashlanavermaydigan ohang va tafsilotlarga alohida e'tibor berishga intiladi. Bu ayniqsa, "Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor" kitobida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Munaqqid asarlarni qiyosiy tahlil qilish yo'lidan boradiki, bu A. Qahhor mahoratini yanada aniqroq ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Bunday yondashuv o'zbek adibini jahonga mashhur novellistlar bilan bir qatorda turadi degan xulosaga olib keladi. Ayni vaqtda, ulardan farqlanuvchi o'ziga xoslikni ham ishonarli dalilladi. A. Qahhorning nodir xususiyatlaridan biri – hayotni, qahramonlarni ruhiy tahlil qilish mahoratiga egaligidir. M. Qo'shjonov "Sarob" va "Sinchalak"ni o'zgalarga o'xshab umuman emas, shu muammo nuqtayi nazaridan tahlil etdi. M. Qo'shjonov maqola, ilmiy tadqiqotlarida fikrni obrazli ifodalash san'ati bilan kitobxon badiiy-estetik didini o'stirishga munosib hissa qo'shgan tanqidchi hisoblanadi. Tanqidchi asarning badiiy mahoratini baholashda me'yor tushunchasini qo'llaydi. U haddan tashqari dabdabali tildan yoki asossiz tasvirlardan qochishni targ'ib qilgan.

Olimning fikricha, haqiqiy badiiy asarda bitta ham ortiqcha so'z yoki voqea bo'lmasligi kerak. Uning Abdulla Qahhor ijodi haqidagi tadqiqotlari aynan so'z zargarligi va ijodiy qat'iyat masalalariga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. [1.2]

M. Qo'shjonov O'zbek tabiati va Milliy xarakter tushunchalarini adabiyotshunoslikning markaziy obyektiga aylantirdi. Uning talqinicha, milliy xarakter faqat kiyim-kechak yoki tilda emas, balki insonning qiyin vaziyatlarda qabul qiladigan qarorlarida, andishasida va or-nomusga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Olim Oybek va Abdulla Qahhor asarlaridagi qahramonlarni tahlil qila turib, ularning har birida millatning o'ziga xos qirralarini kashf etadi.

Olim har bir yozuvchining o'z ovozi bo'lishi kerakligini birinchilardan bo'lib ta'kidlagan.

U yozuvchilarni bir-biriga taqqoslash orqali ularning takrorlanmas qirralarini ochib bergan. Matyoqub Qo'shjonovning tahlil uslubini estetik yaxlitlik tamoyili deb atash mumkin. U asarning kompozitsion qurilishini binoning poydevoriga, undagi badiiy tasvir vositalarini esa binoning pardoziga o'xshatadi. Olim uchun asar – har bir detali o'z o'rnida bo'lgan me'moriy mo'jizadir.

O'zbek tanqidchiligida I. Sulton, O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, N. Karimov, U. Normatov, A. Rasulov singari munaqqidlar adabiy portret ustalari sifatida mashhurdirlar. M. Qo'shjonov ular safidagi peshqadamlardan biri sifatida adabiy portretlarida badiiy mahorat masalasini tadqiq markaziga qo'yishi bilan ajralib turadi. U muayyan asardagi badiiy mahoratni tekshirish orqali ayrim muhim nazariy xulosalar chiqaradi. Munaqqid ijodida adabiy portret janri yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U har bir asar tahlilida yozuvchidan teran hayotiylik, yuksak badiiylikni talab qiladi.

Adabiy portretda ham asosiy masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadi. Shu jihatdan M. Qo'shjonovning I.Sulton, Q. Hikmat, O. Yoqubov, P. Qodirov, Sh.Xolmirzayevga bag'ishlangan kichik-kichik adabiy portretlari, A. Oripovning "Armon" to'plamiga yozgan so'zboshisi hamda S. Meliyev bilan hamkorlikda yozgan "Abdulla Oripov" nomli kitobi xarakterlidir. Sho'ro yillarida yaratilgan adabiy portretlarda yozuvchinixig faqat ijodi markazda tutilib, uning insoniy fazilatlari, hayotidagi dramatism, oila, muhit kabi masalalarga kam e'tibor berildi.

Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, Oybek ijodiga old portretlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, tanqidchining boshqa janrdagi tadqiqotlarida yetakchi "bo'lgan – obrazlarni adabiyotshunoslik yo'li bilan qaytadan yaratish usuliga duch kelamiz. "Nafosat shaydosi" portreti Oybek qiyofasini yaratish yo'lidagi izlanishlardan biridir. Oybek hayoti va ijodiga bag'ishlab monografiya, ilmiy-biografik ocherk, portret kabi janrlarda ko'plab tadqiqotlar yaratildi. M.Qo'shjonov asarining ulardan farqli jihati shundaki, u Oybek ijodi haqida umumlashtiruvchi xarakterdagi adabiy portretni yaratdi. Unda ham yozuvchining ijodiy qiyofasi namoyon bo'ladi, ham asarlaridagi qahramonlaming oddiy kitobxon sezmagani, payqamagan fazilatlari butun to'liqlikda gavdalanadi. M. Qo'shjonov yozuvchi ijodining o'ziga xosliklari, asarlarining badiiyati orqali ochiluvchi muxtasar ijodiy portretlar yaratdi. Jumladan, u I. Sulton, K. Yashin, Sh. Rashidov, Q. Hikmat, O. Yoqubov, P. Qodirov, A. Oripov, Sh. Xolmirzayev, O. Muxtorov portretini yaratar ekan, har bir ijodkorning ko'pchilikka noma'lum mahorat sirlarini kashf etdi. Tanqidchi portretlari ko'pincha, o'quvchi diqqatini tezda o'ziga jalb etadigan qiziqarli usulda boshlanadi. Ba'zan adabiy portretning birinchi jumlasidanoq o'quvchi e'tiborini sirli tugunga havola etadi. Natijada, kitobxon birinchi jumladagi sirli tezisga ergashib, adabiy portretni o'qib qo'yganini sezmay qoladi. Masalan, H. Olimjon haqidagi portretda shoirning o'z so'zlari sarlavhaga ohb chiqilgan. "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman!"

Qudrat Hikmat haqidagi adabiy portret ham "Eshiting, she'r o'qiymen" degan shoirning o'z iborasi bilan boshlanadi. Ya'ni, sarlavhadanoq tanqidchi fikr yuritayotgan ijodkor asarlarining bosh konsepsiyasi yarq etib ko'zga tashlanadi.[1.2]M. Qo'shjonov tahlillarida qiyosiy adabiyotshunoslik elementlari yaqqol ko'zga tashlanadi. U Abdulla Qahhorning qat'iyatini Oybekning lirik mushohadakorligi bilan, Qodiriyning tarixiy mushohadasini zamonaviy romanchilik bilan qiyoslar ekan, har bir ijodkorning adabiyotdagi o'ziga xos imzosini aniqlab berdi. Uning uchun adabiyotning asosiy obyekti – inson. Agar asarda inson taqdiri, uning ichki olami va fojiasi bo'lmasa, u bunday asarni quruq voqeabandlik deb hisoblagan. Olimning fikricha, haqiqiy adabiyot insonning nafaqat tashqi qiyofasini, balki uning ruhiy iyerarxiyasini chizishi kerak. Qo'shjonov qahramonning xatosini tahlil qilganda, uni ayblash emas, balki o'sha xatoga olib kelgan ruhiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunishga harakat qiladi. "Qo'shjonovning shaxsiy fazilatlari uning ilmiy faoliyatiga ko'chgan. U haqiqatni aytishdan qo'rqmagan, lekin bu haqiqatni doim madaniyat va odob bilan yetkazgan. Matyoqub Qo'shjonov tanqidchilikni shaxsiy xusumat maydonidan umummilliy tafakkur darajasiga ko'tardi. Uning taqrizlari asarni yomonlash yoki maqtaish emas, balki uni tushunish va rivojlantirishga qaratilgan edi. Shu ma'noda, u nafaqat adabiyotshunos, balki ma'naviyatshunos ham edi. Qo'shjonov mumtoz adabiyotini (Navoiy, Bobur) bugungi kun ko'zi bilan, zamonaviy adabiyotni esa milliy tarix poydevori asosida tahlil qildi. Uning maqolalari o'quvchi bilan jonli muloqotga kirishadi. U savol beradi, o'ylashga majbur qiladi va yakuniy xulosani o'quvchining o'ziga qoldiradi. Bugun biz foydalanayotgan ko'plab adabiy terminlar va tahlil metodlari zamirida aynan Qo'shjonovning ilmiy izlanishlari yotadi. Matyoqub Qo'shjonovning har bir tadqiqoti muayyan bir adabiy muammoning nazariy yechimiga bag'ishlanadi.

Masalan, u Cho'lpon ijodini tahlil qilar ekan, badiiy haqiqat va hayotiy haqiqat o'rtasidagi mutanosiblikni yangi bosqichda asoslab berdi. Uning uchun tanqidchilik – bu shunchaki munosabat emas, balki adabiyotning falsafasini yaratishdir. Tanqid qilayotgan yozuvchisini kamsitmagan, aksincha, uni tahlil orqali o'stirishga, xatolarini anglatishga intilgan.

Uning tanqidida ustozona mehribonlik bor edi.

Matyoqub Qo'shjonov – o'zbek adabiyotining vijdoniga aylangan olim. Uning merosi bizga adabiyotni nafaqat o'qishni, balki uni his qilishni va tahlil orqali millatning ichki olamini o'rganishni o'rgatadi. Olim yaratgan maktab bugungi kunda ham o'zining ilmiy dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2012 428- b.
2. Normatov U. Tanqidchilik ham ijoddir. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.432-b.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. 516-b.
4. To'ychiyev U. O'zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligi masalalari. – Toshkent, 2000.420-b.
5. wikipedia.uz
6. Ziyo.uz.